

O'QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV

Komilova Aziza Sunatullaevna

Pardayev Xumoyun Farhod o'g'li

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda shaxsga individual yondoshish ya'ni shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan temperament, xarakter, qobiliyat, iqtidor, iste'dod va salohiyatlari, shaxs psixologiyasi, xulq-atvorining yetakchi omillari, kasb-hunarga moyilligini olimlar tomonidan turli komponentlarga ajratilganligi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, individuallik, psixik jarayonlar, individual psixologik xususiyatlar, xarakter, temperament, qobiliyat, iqtidor, iste'dod, salohiyat.

Аннотация: В данной статье индивидуальный подход к человеку в эффективной организации образовательного процесса, то есть от индивидуально-психологических особенностей личности, темперамента, характера, способностей, одаренности, таланта, потенциала, и ведущих факторов психологии личности, поведение, склонность к профессии анализируются учеными по-разному, выделяются сведения о разделении на составляющие.

Ключевые слова: личность, индивидуальность, психические процессы, индивидуально-психологические особенности, характер, темперамент, способности, талант, потенциал.

Abstract: In this article, the individual approach to the person in the effective organization of the educational process, that is, from the individual psychological characteristics of the person, temperament, character, ability, talent, talent, potential, and the leading factors of personal psychology, behavior, inclination to the profession, are analyzed by scientists in different ways. the information about the separation into components is highlighted.

Key words: personality, individuality, mental processes, individual psychological characteristics, character, temperament, ability, talent, potential.

Psixologiya fani insonlardagi psixik jarayonlar, individual psixologik xususiyatlarni o'rganishi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Asrlar davomida psixologiya tavsifiy bilimlar sohasi sifatida ham shakllanmoqda. Agar psixologik fikr tarixiga nazar tashlansa, uning qadim o'tmishlarga borib taqalishini e'tirof etish mumkin. Ruh haqidagi g'oyalar qadimdayoq Suqrot, Aflotun, Arastularning falsafiy qarashlarida shakllangan. Birlamchi psixologik qarashlar falsafa fani negizida paydo bo'lgan edi. Buyuk allomalar asarlarida jon va ruh haqidagi qarashlardan ta'sirlangan holda faylasuf olimlar tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hamda inson ruhiyatiga ham e'tibor qaratib, inson psixologiyasini haqli ravishda falsafa negizida shakllangan fandir deyishmoqda. Keyinchalik boshqa fan sohalari, ayniqsa, tibbiy-biologik izlanishlarda inson va uning murakkab tuzilishi, ruhiy hayotiga qiziqish ortib borgan sari sekin-asta psixik jarayonlar ham yaxlit bir tizimi bo'lishi mumkinligi g'oyasi paydo bo'ladi. Qolaversa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson ruhiyati to'g'risidagi psixologik hamda falsafiy qarashlar bilan tabiiy-ilmiy qarashlar o'rtasida tafovutlar chiqqani sari uning alohida fan sifatida shakllanishi zarurati ortib boradi. Eramizdan oldingi V asrlarda buyuk olim Gippokrat individual psixologik xususiyatlardan biri bo'lgan temperamentlar haqidagi ta'limotni yaratadi va bu ta'limot odamlar o'rtasidagi individual farqlarni ilmiy ravishda tushuntirib berishda muhim rol o'ynaydi. Eramizdan oldingi asrlarda psixologik fikrlarni yana qaytadan tabiiy-ilmiy asoslab, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi. Arastuning "Jon haqida"gi asari o'sha davridayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganligidan dalolat beradi. Psixologiya fan sifatida tan olinib, olimlarning qarashlari shakllanib borgan sari, kechinmalar tabiatini negizidan o'rganish ehtiyoji paydo bo'la boshladi. Bu o'z-o'zidan shaxsning individual xususiyatlarini xisobga olishni taqozo etadi deyish mumkin.

Bizga ma'lumki jamiyat hayotida tinimsiz o'zgarishlar natijasida psixologiyaning bir qancha tarmoqlari yuzaga keldi. Psixologiya fanining muhim sohalaridan biri shaxs psixologiyasidir. Bu tarmoq shaxsning individual xususiyatlari – xarakteri, temperamenti, qobiliyati, xulq-atvorining etakchi omillari, kasb-

hunarga moyilligini o'rganadi. Olimlar shaxs individualligini turli komponentlarga ajratadi. Bu komponentlarini umumlashtirgan holda quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Ijtimoiy holati va roli
2. «Men konsepsiya» va dunyoqarash
3. Munosabatlar va qadriyatlar ierarxiyasi
4. Aqliy va amaliy qobiliyatlari
5. Xarakter
6. Temperament
7. Yoshi, jinsi

Shaxs individualligi deganda, nima tushuniladi? Individuallik - shaxsning sub'ektiv va ijtimoiy mohiyatini ifodalashdagi o'ziga xos xususiyat bo'lib - temperament, xarakter, qobiliyat, iste'dod va geniylik sifatlariga bo'linadi.

Bola psixik taraqqiyoti tashqi sharoitlarga tashqi ta'surotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishning bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar xamda vaziyatlar xamisha odamning xayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Shu bilan birga odam faol mavjudot sifatida o'zi xam ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni tevarak atrofidagi muhitdan ajralmagan xolda olib boriladi. O'z-o'zini tarbiyalash muhit bilan moslashgan xolda va muhit bilan aktiv o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Muayyan jamiyatda asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda shaxsning fiziologik, pedagogik-psixologik va jismoniy rivojlanishiga ko'ra yondashish tajribasi shakllangan.

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya fanida shaxs iqtidori, qobiliyatlilik darajasi, qobiliyatni maqsadli rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga kirishildi. N.S.Leytes, M.Karne, V.S.Blum, B.Klark, J.Uitmor, A.Sh.Shvedel, R.S.Stounberner, L.Termen kabilar tomonidan qobiliyatlilik va uning darajalarini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi, shuningdek, qobiliyatli shaxslarning o'ziga xos pedagogik-psixologik sifatlarining tadqiq etilishi hamda ular bilan munosabatni

to'g'ri tashkil etish yuzasidan tavsiyalarning ilgari surilishi nafaqat soha rivojini ta'minlab qolmay balki, qobiliyatli shaxslarning "cheksiz imkoniyatlari"dan samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatib berdi.

J.Uitmor quyidagi omillar bolalarda alohida qobiliyatning namoyon bo'lishiga zamin yaratishini asoslab berdi:

1. Mukammallikka intilish (perfeksionizm). Qobiliyatli bolalar uchun kamolotga intilishning ichki ehtiyojiga egalik xosdir. Ular yuqori natijalarni qo'lga kiritmagunlaricha tinchimaydilar. Buning ilk ko'rinishi juda yoshlikdan ko'zga tashlanadi.

2. Qoniqmaslik tuyg'usiga egalik. O'z-o'ziga bunday munosabatda bo'lish qobiliyatlilar nima bilan shug'ullansa ularning barchasida mukammal bo'lishga intiluvchi bolalarga xos xususiyat sanaladi. Ular shaxsiy yutuqlariga tanqidiy yondashadilar, ko'p holatlarda ulardan qoniqmaydilar, bundan o'z-o'zini noto'g'ri va past baholash hissi yuzaga keladi.

3. Noreal (amalga oshish imkoniyati kam bo'lgan) maqsadlarga egalik. Qobiliyatli bolalar odatda o'z oldilariga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatiga ega bo'lmasalar, ular tashvishlana boshlaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, mukammallikka intilish yuksak yutuqlarga erishish imkonini beruvchi kuchdir.

4. O'ta sezgirlik. Qobiliyatli bolalar eshitish imkoniyatining yuqoriligi tufayli ular munosabat va aloqalarni yaxshi tushunadilar, ular nafaqat o'zlariga, shu bilan birga atrofdagilarga nisbatan ham tanqidiy munosabatda bo'ladilar. Qobiliyatli bolalar juda ta'sirchan bo'lib, ular atrofdagilardan o'zlariga nisbatan bildirilayotgan yoqimsiz so'z yoki so'zsiz harakatlarning paydo bo'lishi bilan oq qabul qiladilar. Doimiy ravishda turli ko'rinishdagi salbiy ta'sirlarga javob beraverish oqibatida bunday bolalar ko'p hollarda giperfaol va tez chalg'iydigan bo'lib qoladilar.

5. Kattalarning e'tiborlariga ehtiyoj sezish. Tabiatan qiziquvchanliklari va bilishga bo'lgan intilish ko'p hollarda o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa katta yoshli

kishilarning e'tiborlari o'zlarigagina qaratilishini xohlaydilar. Bu boshqa bolalar bilan munosabatlarda bunday istakni keskinlashtiruvchi ziddiyatni keltirib chiqaradi.

6. Sabrsizlik. Qobiliyatli bolalar ko'p holatlarda aqliy jihatdan o'zlariga nisbatan past salohiyatga ega bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'ladilar. Shu sababli ular toqatsizlik va sabrsizlikni ifodalovchi tashqi tanbehlariga duch keladilar. [2]

Bugungi kun barkamol shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda, o'quvchilarni komil inson qilib tarbiyalashda psixologlar va pedagoglar xamkorligida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ular o'quvchilarga tarbiya berishning saviyasini ko'tarishga yordam berishi mumkin bo'lgan psixologik muammolar echimini topish yuzasidan samarali yutuqlarga erishilmoqda. Psixologlarimizning fikrlariga tayangan xolda aytish mumkinki, bugungi kunda ta'lim tarbiyaning muvaffaqiyati o'quv materialining mazmunigagina, ta'lim-tarbiyaning metodlarigagina bog'liq emas. Balki xar bir o'quvchining faqatgina o'ziga xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlarini ya'ni temperament, xarakter va qobiliyatlarini xisobga olish va shu asosida ularga topshiriq va vazifalar berib borish lozim.

O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishda ular uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim omillardan biri sanaladi. 1980 yillarda amerikalik olimlar M.Karne, A.Shvedel va S.Minnemayerlar o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarning inobatga olinishi muhim ekanligini alohida qayd etib o'tganlar:

1. Har bir bola takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlarga ega.
2. Qobiliyatli bolalar o'zlariga nisbatan nihoyatda tanqidiy yondashadilar va ko'p hollarda u qadar ijobiy bo'lmagan "Men" obraziga egaliklari bilan ajralib turadilar.
3. Oila qobiliyatli bolalarga ta'lim berishda yetakchi o'rinni egallashi lozim.
4. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dasturda ularning qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq keluvchi turli-tuman o'quv materiallari o'rin olishi kerak.
5. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dastur uning har tomonlama – harakat, hissiy, shuningdek, muloqot malakalarini shakllantirishdagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashi hamda ularni rivojlantirishga yordam bera olishi zarur.

6. Qobiliyatli bolalar “bilimlarni o‘rtacha o‘zlashtiruvchi” o‘quvchilar bilan bir guruh (sinf)da o‘qitilganda xuddi o‘zlari singari qobiliyatli bolalar bilan muloqot qila olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak.

7. Bu kabi dasturlarni amalga oshirishga maxsus tayyorgarlik va qobiliyatli bolalar bilan ishlash tajribasiga ega mutaxassisning rahbarlik qilishi yuqori natijalarni qo‘lga kiritishga imkon beradi.

8. Qobiliyatli bolalar uchun namunaviy dasturlar o‘quvchilarni bir ta’lim muassasasida uzluksiz o‘qitishni talab etadi.

9. Ota-onalar va mutaxassislar uchun bola oldiga qo‘yiluvchi maqsadlar va ularni amalga oshirish yo‘llarini aniqlashga bo‘lgan munosabatlarda hamkorlik qilish muhim sanaladi.

10. Dasturning ajralmas qismi bola muvaffaqiyatlarini baholovchi tizim bo‘lishi lozim.

11. Dastur o‘zida ota-onalar ham muhim rol o‘ynaydigan qobiliyatlilikning namoyon bo‘lishini ta’minlovchi yaxshi tashkillashtirilgan, samarali va doimiy harakatdagi tizimni qamrab olishi lozim.

12. Dastur bolaning rivojlanishini ta’minlovchi hamda bir darajadan ikkinchi darajaga samarali va izchil o‘tishi uchun zarur imkoniyatga ega bo‘lishi zarur.

13. Dastur maqsadlariga erishishga bo‘lgan intilishni rivojlantira olishi kerak.

14. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – dasturning muhim maqsadlaridan biri sanaladi.

15. Qobiliyatli rahbarlarni iqtidorli bolalarga ta’lim berishga jalb etishning zaruriy yo‘llarini topish maqsadga muvofiqdir.[3]

Manbalarda “qobiliyat”, “iqtidor”, “iste’dod” va “salohiyat” tushunchalarining garchi yagona negizga ega bo‘lsa-da, biroq turli darajadagi xususiyatlarni ifodalashi alohida ta’kidlab o‘tiladi. Jumladan, qobiliyat “shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning ishni muvaffaqiyatli bajarishidagi o‘ziga xos imkoniyatlarni ifodalovchi ruhiy xususiyatlar”, “shaxsning ma’lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual pedagogik-psixologik xususiyatlar” sifatida e’tirof etilsa, “insonning o‘z xatti-harakatlariga nisbatan sub’ektiv munosabati” esa iqtidor deya talqin etiladi.

Mavjud manbalarda shaxsning o‘zgalardan farqli xususiyatlarini anglatishga xizmat qiluvchi individual xususiyatlarga egalik turli darajada bo‘lishiga va darajasiga ko‘ra shaxsga muayyan nisbatlar berilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Shaxsning temperamenti deganda biz ularning tabiiy va tug'ma xususiyatlarini tushunamiz. Ta'lim tarbiya jarayonida biz o'quvchilarning aynan temperament tiplarini yaxshi bilgan xolda va xisobga olgan xolda ular bilan muomala munosabatga kirishishimiz muhimdir. Faoliyat jarayonida xar bir o'quvchida temperamentning qaysidir tipi namoyon buladi va bu narsa o'quvchining muvaffaqiyatiga yordam beradi. SHunday ekan xar bir narsani o'quvchilarga etkazishda, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallashlarida ularning temperamentining fan o'qituvchisi tomonidan xisobga olinishi ta'lim tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi va bolaning muvaffaqiyatga erishishiga yaqindan yordam beradi. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakillanib, rivojlanib kamolga etish yoshlarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarni bevosita ta'sirini xamda ahamiyatini tushunishimiz mumkin. Xar bir temperament o'smirlar o'qish faoliyatida va o'quvchilar orasida o'zlarini tipiga xos tarzda nomoyon etib boradilar. Bu narsaga befarq qarash va xisobga olmaslik o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarning buzilishiga, bir-birini tushunmaslikka va ta'lim tarbiya jarayonida orqada qolishga sabab bo'ladi. SHuni xisobga olgan xolda aytish mumkinki biz melanxolik, xolerik, flegmatik, sangvinik tipdagi o'quvchilarning aynan o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda, yuqoridagilarga amal qilgan xolda muomala o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishimiz va amal qilishimiz lozim.

Xulosa chiqarish mumkinki, bir xil tashqi sharoit, bir xil muhit, turli bolalarga, o'smirlarga, yigit va qizlarga turlicha ta'sir ko'rsatish mumkin. Maktab o'quvchisining psixik taraqqiyoti qonunlari shuning uchun xam murakkabki, psixik taraqqiyotning o'zi murakkab va qarama-qarshi o'zgarishlardan iborat jarayondir. Psixik taraqqiyotning faktorlari, ta'lim va tarbiya sharoitlari xilma-xil va ko'p qirralidir. Biz yuqorida aytib o'tilganidek, bu faktor va sharoitlar turli bolalarga turlicha ta'sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. O‘quvchilarning qiziqish va moyilliklari diagnostikasi /Metodik tavsiyanomalar. – T.: RO‘MM, 2001.
3. Shaxsni o‘rganish metodikalari /Amaliyotchi psixologlar uchun qo‘llanma. – T.: A.Avloniy nomli PXMOMI, 2000.
4. Sunatullaevna, K. A., & Quدراتovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.
5. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
6. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
7. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
8. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 419-422.
9. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 87-89.